Аннотация: В данной статье исследованы стратегии эффективного управления высшими учебными заведениями, обладающими финансовой независимостью в Узбекистане. В процессе реформирования высшего образования финансовая независимость рассматривается как ключевой фактор, обеспечивающий функциональное функционирование, стратегическое развитие и финансовую устойчивость образовательных учреждений. Научно проанализированы проблемы, возможности и современное состояние внедрения финансовой независимости на практике. Также через мировую практику, отечественный опыт, научные взгляды ученых, таблицы и точный численный анализ сформировался системный подход к предмету. На основе результатов экономического анализа разработаны институциональные, нормативные и практические предложения по проблемам финансового менеджмента, значимости стратегического планирования, диверсификации источников средств и внедрения механизмов финансирования на основе результатов, эффективного управления финансовой самостоятельностью.

Ключевые слова: высшее образование, финансовая независимость, стратегия управления, финансовое планирование, государственно-частное партнерство, финансирование образования, диверсификация доходов, ответственность, оценка качества образования, финансирование на основе результатов, экономическая стабильность, инновационное образование.



KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqobat sharoitida oliy ta'lim tizimi faqat bilim berish funksiyasini bajargina qolmasdan, balki mamlakatning iqtisodiy o'sishi, innovatsiyaviy rivojlanishi va inson kapitali salohiyatini shakllantirishda strategik ahamiyatga ega sohalardan biriga aylangan. Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi va mustaqilligi esa bu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki moliyaviy mustaqillik — bu ta'lim muassasasiga mustaqil qaror qabul qilish, resurslarni maqsadli yo'naltirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va o'z faoliyatini bozor talablariga mos ravishda tashkil etish imkonini beradigan asosiy mezonlardan biridir.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotining muhim poydevori sifatida yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Yangi iqtisodiy shart-sharoitlarda ta'lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki tadqiqot, innovatsiya, tadbirkorlik va jamiyat ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash markaziga aylanmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalariga nisbatan talab va yuklamalarni sezilarli darajada oshirmoqda. Shunday sharoitda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash masalasi nafaqat muhim, balki strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda oliy ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni liberallashtirish va raqobatbardoshlikka yo'naltirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. 2030-yilgacha mo'ljallangan ta'lim strategiyasida moliyaviy mustaqillik tamoyiliga asoslangan oliy ta'lim muassasalari modelini shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan. Bugungi kunga kelib, qator OTMlarga budjetni mustaqil yuritish, ta'lim xizmatlari narxlarini erkin belgilash, investitsiyalarni jalb etish va davlat-xususiy sheriklikni yo'lga qo'yish bo'yicha huquqiy asoslar yaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim muassasalariga yangi imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda.

Amaldagi bosqichda ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish darajasini yanada oshirish uchun kompleks boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. Boshqaruv tizimida strategik moliyaviy fikrlashni keng joriy etish, OTMlarning daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va resurslarni boshqarishda shaffoflik hamda natijadorlik tamoyillariga tayangan yondashuvni kuchaytirish zarur. Shuningdek, mavjud davlat ko'magidan bosqichma-bosqich samarali foydalangan holda moliyaviy avtonomiyaning real mexanizmlarini joriy etish orqali OTMlar o'z mustaqilligini amalda namoyon eta oladi.

Moliyaviy mustaqillik — bu nafaqat moliyaviy erkinlik, balki natijadorlikka yo'naltirilgan mas'uliyatli boshqaruv tamoyilidir. Moliyaviy jihatdan mustaqil OTMlar o'z budjetini strategik rejalashtirib, xarajatlarni maqbullashtirishi, budjetdan tashqari daromad manbalarini kengaytirishi, investitsiya loyihalarini amalga oshirishi va ijtimoiy javobgarlik asosida faoliyat yuritishi mumkin. Bunday tizim ta'lim muassasalarining ichki salohiyatini to'liq ishga solishga, ularni tadbirkorlik subyekti sifatida shakllantirishga va mehnat bozorining ehtiyojlariga moslashgan ta'lim tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demografik o'sish sharoitida ta'limga bo'lgan ehtiyoj izchil oshib bormoqda. Aholining o'sishi, ayniqsa yoshlar sonining ko'payishi, oliy ta'lim tizimi oldiga yanada kengroq va sifatli ta'lim xizmatlarini tashkil etish vazifasini qo'yimoqda. Moliyaviy jihatdan barqaror va avtonom faoliyat yuritayotgan OTMlarga ushbu ehtiyojlarni qamrab olishda yuqori samaradorlikni ta'minlay oladi. Shu bois, moliyaviy avtonomiyani ta'minlash — bu nafaqat iqtisodiy barqarorlikning kafolati, balki ta'lim qamrovini kengaytirishning ham zarur sharti hisoblanadi.

Bugungi kunda global miqyosdagi raqobat ham oliy ta'lim tizimidan faol strategik yondashuvni talab qilmoqda. Dunyoning yetakchi universitetlari moliyaviy mustaqillik, innovatsion g'oyalar va xususiy sarmoya asosida rivojlanmoqda. O'zbekistondagi OTMlar ham xalqaro maydonda o'z o'rnini mustahkamlashi uchun zamonaviy moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishi, investitsion salohiyatini kuchaytirishi va o'z faoliyatini barqarorlik mezonlari asosida olib borishi zarur. Bu nafaqat ta'lim sifatiga, balki mamlakatning intellektual salohiyati, inson kapitali va iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois, moliyaviy mustaqillikni boshqarish bo'yicha zamonaviy strategiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish — oliy ta'lim tizimini institutsional jihatdan rivojlantirish, iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, ta'lim muassasalarining barqarorligini ta'minlash va milliy taraqqiyot jarayonini yangi bosqichga olib chiqishning muhim omilidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy mustaqillik masalasi jahon oliy ta'lim tizimida so'nggi o'n yilliklarda e'tibor markazida bo'lib kelayotgan ilmiy yo'nalishlardan biridir. Ushbu mavzuda olib borilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, moliyaviy mustaqillik nafaqat mablag'lardan mustaqil foydalanish imkoniyatini yaratadi, balki boshqaruv samaradorligini, institutsional yetuklikni va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Jahondagi ilg'or olimlardan biri — Barton Klark o'zining mashhur Entrepreneurial Universities nomli ilmiy tadqiqotlarida moliyaviy mustaqillik va tashkiliy erkinlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilgan. Uning



ta'kidlashicha, moliyaviy mustaqil oliy ta'lim muassasalari o'z strategik rejalarini mustaqil ishlab chiqishi, yangi mablag' manbalarini izlash va jamiyat bilan interaktiv munosabat o'rnatishi orqali tezroq rivojlanadi. Klarkning konsepsiyasida "пять путей к предпринимательскому университету" degan model mavjud bo'lib, unda moliyaviy erkinlik rivojlanishning asosiy shartlaridan biri sifatida qayd etilgan. [1]

Jaudet Salmi esa moliyaviy mustaqillikni "dunyo darajasidagi universitet"ni shakllantirishning hal qiluvchi omillaridan biri deb hisoblaydi. Uning The Challenge of Establishing World-Class Universities nomli tadqiqotida ta'lim muassasasining moliyaviy manbalari qanchalik diversifikatsiya qilingan bo'lsa, uning mustaqil qaror qabul qilish salohiyati shunchalik yuqori bo'lishi ta'kidlanadi. [2] Salmiga ko'ra, davlat tomonidan ajratiladigan mablag'lar yetarli bo'lmasligi fonida universitetlar o'zlarining tadqiqot salohiyati va ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashlari shart.

Markaziy Osiyo va, xususan, O'zbekiston kontekstida esa mazkur masalaga oid ilmiy ishlar hali yetarlicha shakllanmagan. Biroq oxirgi yillarda mahalliy olimlar tomonidan amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, A. Abdullaev o'z tadqiqotida moliyaviy mustaqillikni ta'lim muassasasining strategik rejalashtirish qobiliyati bilan bog'laydi va bu jarayonni samarali tashkil etish uchun institutsional o'zgarishlar zarurligini ta'kidlaydi. [7] Uning fikricha, O'zbekistonda moliyaviy mustaqillik huquqi berilgan OTMLar ko'pincha moliyaviy tahlil va budjetlashtirish ko'nikmalariga yetarlicha ega emas, bu esa resurslardan samarali foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

Shu bilan birga, B. Qurbonov o'zining ilmiy izlanishlarida moliyaviy mustaqillikni davlat-xususiy sheriklik kontekstida o'rgangan va ta'lim muassasalari uchun bu sheriklik modellari orqali investitsiyaviy manbalarni kengaytirish imkoni borligini asoslab bergan. [8] Uning tadqiqotida ta'limni moliyalashtirishning alternativ sxemalari, jumladan, korporativ grantlar, homiylik, kontraktli ilmiy loyihalar haqida amaliy misollar keltirilgan.

N. Sharipov esa moliyaviy mustaqillik sharoitida ta'lim muassasalarining daromad keltiradigan faoliyat turlarini kengaytirishga oid amaliy yo'nalishlarni tahlil qilgan. Uning fikricha, universitetlar o'z resurslaridan unumli foydalanish, ta'limdan tashqari faoliyat – masalan, konsultatsiya, sertifikatlash kurslari, tadqiqot xizmatlari orqali yangi daromad manbalarini shakllantirishlari kerak. [9]

Moliyaviy mustaqillik va uni boshqarish strategiyalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalishda muvaffaqiyatga erishish uchun muassasaning ichki boshqaruv madaniyati, shaffoflik darajasi, moliyaviy bilimlar va tashqi muhit bilan hamkorlik strategiyalari mustahkam bo'lishi kerak.

Margaret Klare o'z tadqiqotida ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikni tatbiq qilish jarayonida huquqiy chegaralarni aniq belgilash va ichki nazorat mexanizmlarini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning tahliliga ko'ra, moliyaviy avtonomiya o'ziga xos risklarni ham keltirib chiqaradi; agar institutsional hisobdorlik tizimi mustahkam bo'lmasa, korrupsiya va samarasiz resurs boshqaruvi xavfi oshadi. [4]

Marek Kviech o'zining tadqiqotlarida Yevropa oliy ta'lim tizimi bo'yicha yetuk tahlilchi sifatida moliyaviy mustaqillik va tadqiqotlarning innovatsion moliyalashuvi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan. U ta'kidlaydiki, moliyaviy mustaqillik universitetlarni "innovatsiya markazi"ga aylantiradi, ammo bu faqat budjetdan tashqari manbalar (EU grantlari, xususiy fondlar) samarali jalb etilgandagina amalga oshadi. [5]

Bryus Jonston va Djon Eklund o'zlarining ilmiy izlanishlarida moliyaviy mustaqillik modellarini turli mamlakatlar amaliyotida tahlil qilib, shu xulosaga kelishgan: davlat moliyalashtirishdan asta-sekin chetlashib, universitetlarning o'z daromadini topishini rag'batlantirmoqda. [3] Lekin bu jarayonda ijtimoiy adolat mezonlari ham saqlanishi kerak, aks holda ta'lim kambag'al qatlamlar uchun ommaviyligini yo'qotadi.

Helmut Kasper esa o'zining ilmiy ishlanmalarida universitetlarning moliyaviy mustaqilligi va korporativ boshqaruv o'rtasidagi bog'liqlikni ochib bergan. Uning fikricha, moliyaviy mustaqil universitetlarda kengashlar (board of trustees) faolligi yuqori bo'lib, ular resurs taqsimoti, loyiha tanlovlari va strategik masalalarda hal qiluvchi rol o'ynaydi. [6] Demak, mustaqil moliyaviy boshqaruv korporativ tuzilmalar bilan bog'lanishi shart.

O'zbekistonlik olimlardan J. Rahimov va D. Ergashev o'z tadqiqotlarida ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikni bosqichma-bosqich joriy etishni taklif qilishgan. Ular ta'lim muassasalarida moliyaviy salohiyat va ichki budjet tuzish ko'nikmalari yetarli emasligini ta'kidlab, davlat tomonidan o'quv muassasalariga moliyaviy menejment bo'yicha institutsional yordam ko'rsatish zarurligini aytishgan. [10]

Shuningdek, A. Sen o'zining tadqiqotlarida ta'limda moliyaviy erkinlik bilan ijtimoiy tenglik o'rtasidagi ziddiyatli muvozanatni o'rgangan. U ta'kidlaydiki, agar moliyaviy mustaqillik noto'g'ri boshqarilsa, bu ta'lim narxining oshishiga va imkoniyatlar no'anaviy qatlamlar uchun cheklanishiga olib kelishi mumkin. [11]

Tanqidiy nuqtayi nazardan qaralganda, ko'plab tadqiqotlarda moliyaviy mustaqillikning iqtisodiy va tashkiliy foydasiga katta e'tibor qaratilsa-da, bu jarayonning ehtimoliy xatarlari va oqibatlarini – jumladan, ta'limda kommertsiyalashuv, ijtimoiy tengsizlikning oshishi, shaxsiy manfaatlarni davlat siyosatidan ustun qo'yish xavfi – yetarlicha yoritilmagan. Shu bois, ilmiy adabiyotlarda ushbu muvozanatni saqlash, ya'ni moliyaviy mustaqillikni samaradorlik va javobgarlik bilan uyg'unlashtirish masalasi yanada chuqurroq o'rganilishi lozim.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Moliyaviy mustaqil oliy ta'lim muassasalarini boshqarish strategiyalarini takomillashtirishda tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy hamda selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqobatbardosh ta'lim muhitini shakllantirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish borasida kompleks va tizimli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020-yildan boshlab bir qator oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillik tamoyilini amaliyotga joriy etish boshlangan bo'lib, bu yo'nalishda sezilarli bosqichlar bosib o'tildi. Mazkur tashabbus doirasida OTMlarga budjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish, ta'lim xizmatlari narxlarini mustaqil belgilash, ichki xarajatlar siyosatini optimallashtirish va investitsiyaviy tashabbuslarni ilgari surish imkoniyati taqdim etildi. Natijada, ta'lim muassasalari o'z strategik boshqaruv salohiyatini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni faollashtirish hamda tadbirkorlik qobiliyatini kengaytirish yo'lida yangi bosqichga chiqmoqda.

Moliyaviy mustaqillik doirasida boshlangan islohotlar OTMlar tomonidan strategik yondashuv asosida qo'llab-quvvatlanayotgani, mavjud salohiyatni yanada to'liq ishga solish zaruratini ko'rsatmoqda. Jumladan, ichki boshqaruv tizimini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, moliyaviy rejalashtirish va monitoring mexanizmlarini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi amaliy tajriba va ko'nikmalar shakllanmoqda. Moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlar tuzilmasini maqbullashtirish va daromad manbalarini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan harakatlar, uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida bu yo'nalishdagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun tegishli huquqiy-normativ bazani mustahkamlash, shaffof hisobdorlik tizimini takomillashtirish, ichki audit va moliyaviy tahlil instrumentlarini amaliyotga keng joriy etish tavsiya etiladi. Ayniqsa, ilg'or boshqaruv mexanizmlarini, xalqaro tajribalarga asoslangan moliyaviy modellarni O'zbekistondagi OTMlar sharoitiga moslab integratsiyalash — moliyaviy avtonomiyaning to'liq ishlashiga zamin yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, moliyaviy mustaqillik – bu yakuniy maqsad emas, balki oliy ta'lim sifatini oshirish, bozor talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va universitetlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladigan strategik vositadir. Mazkur yondashuv oliy ta'lim tizimini nafaqat ichki rivojlanishga, balki xalqaro ilmiy-ta'lim makoniga integratsiyalash yo'lida ham muhim tayanch sifatida xizmat qilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Oliy ta'lim muassasalarida davlat budjet yordami va budjetdan tashqari faoliyati

yillar	Budjet daromadi (%)	Budjetdan tashqari daromad (%)	Xarajat: budjet (%)	Xarajat: budjetdan tashqari (%)
2018	32,3	67,7	37,5	62,5
2019	24,4	75,6	29,7	70,3
2020	22,5	77,5	32,9	67,1
2021	23,2	76,8	29,8	70,2
2022	26,3	73,7	30,9	69,1
2023	28,4	77,4	32,5	71,2

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda davlat OTM daromadlarining 22–32 % qismi davlat budjetidan, qolgan qismi esa kontraktlar va xizmatlar hisobidan shakllanmoqda. Bu esa moliyaviy mustaqillik yo'lida izchil siljish kuzatilayotganini ko'rsatadi. Xarajatlardagi budjetdan tashqari mablag'lar ulushining 70 %ni tashkil etishi esa OTMlar mustaqil budjet yuritish imkoniyatlaridan faol foydalanayotganini bildiradi.

Kelgusida ushbu mablag'lardan strategik va samarali foydalanish mexanizmlarini kuchaytirish orqali moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, ta'lim sifatini va barqarorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yuzaga chiqishi kutilmoqda (2-jadval).



2-jadval. OTMlarda daromad manbalari tuzilmasi (salmiq % hisobida)

Daromad manbai	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Talabalar kontrakt to'lovlari	61	59	58	55
Davlat budjeti subsidiyalari	28	27	26	25
Ilmiy grantlar va loyihalar	4	5	6	8
Xizmatlar (sertifikat, konsalting)	3	4	5	6
Xorijiy pul tushumlari	2	3	3	4
Boshqa mablag'lar	2	2	2	2

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi bosqichda OTMlar daromadlarining asosiy qismini (55–61 %) kontrakt to'lovlari tashkil etmoqda. Shu bilan birga, ilmiy grantlar va xizmatlar ulushining bosqichma-bosqich ortib borayotgani — ta'lim muassasalarining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish yo'lidagi ijobiy siljishlardan dalolat beradi.

Kelgusida xorijiy investitsiyalarni jalb etish, xalqaro sheriklikni kengaytirish va innovatsion xizmatlar turlarini rivojlantirish orqali daromad manbalarini yanada ko'paytirish mumkin. Bu esa OTMlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlab, raqobatbardosh va innovatsion ta'lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi (3-jadval).

3-jadval. Moliyaviy mustaqil OTMlarda ichki moliyaviy rejalashtirish usullari (% OTMlar kesimida)

Moliyaviy boshqaruv amaliyoti	Joriy etganlar (%)	Joriy etmaganlar (%)
Strategik moliyaviy reja	42	58
Harajat-daromad prognozlash	36	64
Ixtisoslashgan moliyaviy guruhlar	48	52
Performance-based budget modellari	21	79
Davriy audit va tashqi hisobotlar	33	67

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, ko'plab OTMlar hozirda professional budjetlashtirish va strategik rejalashtirish tizimlarini joriy etish yo'lida dastlabki bosqichda turibdi. Performance-based modellarni bosqichma-bosqich tatbiq etish orqali natijadorlikka asoslangan boshqaruv yondashuvlarini shakllantirish imkoniyati mavjud.

Shuningdek, davriy audit va hisobdorlik tizimlarini keng joriy etish, moliyaviy jarayonlarda shaffoflikni ta'minlash hamda xalqaro standartlarga mos boshqaruv madaniyatini rivojlantirish orqali OTMlar faoliyatining ishonchligini oshirish mumkin. Bu yondashuv uzoq muddatli barqarorlik va samaradorlikning mustahkam poydevorini yaratishga xizmat qiladi (4-jadval).

4-jadval. Ilmiy faoliyat va moliyaviy investitsiya o'rtasidagi bog'liqlik

Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Tadqiqotlar uchun mablag' (% budget)	2,5	3,1	4,0	5,2
Ilmiy maqolalar soni (OTM bo'yicha)	600	720	950	1200

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, ilmiy faoliyatni moliyalashtirish ko'rsatkichlari izchil o'sib bormoqda. Bu esa tadqiqot salohiyatiga berilayotgan e'tibor kuchayotganidan dalolat beradi. Ilmiy maqolalar sonining oshib borayotgani esa moliyaviy resurslarni ilmiy izlanishlarga yo'naltirish samarali natijalar berayotganini ko'rsatadi.

Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi istiqbolli yo'nalishlar aniqlanmoqda:

– OTMlarda moliyaviy mustaqillik uchun zarur shart-sharoitlar shakllanmoqda. Endilikda ijro mexanizmlarini takomillashtirish va ichki boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish orqali bu salohiyat to'liq ishga solinadi.



– Daromad manbalarining diversifikatsiyasi bo'yicha muhim bosqichlar belgilangan. Grantlar va xizmatlar ulushini oshirish orqali barqaror va innovatsion moliyaviy modelga o'tish imkoniyati mavjud.

– Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy boshqaruv amaliyotlarini standartlashtirish, normativ-huquqiy bazani yangilash va malakali mutaxassislar tayyorlash orqali tizimli rivojlanishga erishish mumkin.

– Ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilayotgan investitsiyalar o'z samarasini bermoqda. Kelgusida bu yondashuvni tizimlashtirish, ilmiy faoliyatni strategik rivojlanish yo'nalishiga aylantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini erkinlashtirish va bozor mexanizmlariga moslashtirish yo'lida moliyaviy mustaqillik muhim strategik ustuvorlik sifatida e'tirof etilmoqda. Bu jarayon nafaqat budjetdan tashqari daromad manbalarini shakllantirish, balki oliy ta'lim muassasalarining o'z faoliyatini strategik rejalashtirish, samarali boshqarish va javobgarlik tamoyillariga asoslangan rivojlanish modelini yaratishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlillar ushbu yo'nalishda sezilarli salohiyat mavjudligini ko'rsatadi. Xususan:

– Ko'plab OTMLar moliyaviy mustaqillik huquqiga ega bo'lgan holda, hozirda ichki boshqaruv tizimlarini bosqichma-bosqich takomillashtirmoqda. Rejalashtirish madaniyati va hisobdorlik mexanizmlari joriy etilayotgani bu yo'nalishda izchil taraqqiyotga yo'l ochadi.

– Daromad manbalarining tarkibi talaba to'lovlariga tayanayotgan bo'lsa-da, grantlar, xizmatlar va boshqa iqtisodiy faoliyatlar hisobiga diversifikatsiyani chuqurlashtirish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Bu esa moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga zamin yaratadi.

– Ilmiy tadqiqotlarga ajratilayotgan mablag'lar hajmi ortib borayotgan bo'lib, hozirda bu resurslarni institutsional darajada qo'llab-quvvatlash mexanizmlari shakllanmoqda. Ularni tizimlashtirish orqali innovatsion rivojlanishga zamin yaratiladi.

– Performance-based moliyalashtirish, ya'ni natijadorlikka asoslangan yondashuvni bosqichma-bosqich joriy etish orqali moliyaviy samaradorlik, raqobat va boshqaruv mas'uliyatini kuchaytirish istiqbollari mavjud.

Moliyaviy mustaqillikni amalda to'liq va samarali joriy etish uchun quyidagi uchta ustuvor yo'nalishda tizimli yondashuvni rivojlantirish tavsiya etiladi:

1. Institutsional transformatsiya. OTMLarda funksional moliya bo'limlari, strategik rejalashtirish guruhlar va mustaqil audit tizimlarini shakllantirish orqali moliyaviy boshqaruvni mustahkamlash mumkin. Bu strukturalar moliyaviy qarorlar qabul qilishda markaziy rol o'ynaydi.

2. Ta'lim xizmatlarini diversifikatsiya qilish. An'anaviy ta'lim turlariga qo'shimcha ravishda, bozor talablariga mos qisqa muddatli kurslar, malaka oshirish dasturlari va xususiy sektor bilan integratsiyalashgan o'quv modullarini joriy etish orqali yangi daromad manbalari shakllantiriladi.

3. Ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirish. Moliyaviy mustaqillik mas'uliyatni oshiradi. Shuning uchun OTMLar xarajat va daromadlar bo'yicha ochiq hisobotlar taqdim etishi, jamoatchilik nazorati va sifat monitoringini tashkil etishi muhim.

Bundan tashqari, moliyaviy mustaqillik mamlakatning makroiqtisodiy strategiyasida — raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, eksportbop ta'lim xizmatlarini kengaytirish va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirishda tayanch omil bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu yo'nalishlarni kuchaytirish uchun quyidagi amaliy choralar muhim ahamiyat kasb etadi: normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, xususiy sektor bilan hamkorlikni kengaytirish, moliyaviy savodxonlik va boshqaruv ko'nikmalarini oshirish, budjet shaffofligini raqamli tizimlar orqali ta'minlash hamda natijaviy moliyalashtirishni to'liq joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy mustaqillik oliy ta'lim muassasalari uchun ulkan imkoniyatlar eshigidir. Bu eshikdan muvaffaqiyatli o'tish strategik fikrlash, zamonaviy boshqaruv madaniyati va jamoatchilik oldidagi mas'uliyatni o'zida mujassam etgan faol va tizimli yondashuvni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Clark, B. R. (1998). *Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation*. Pergamon Press.
2. Salmi, J. (2009). *The Challenge of Establishing World-Class Universities*. World Bank Publications.
3. Johnstone, D. B., & Eklund, J. (2003). *The Financial Sustainability of Higher Education Institutions*. Centre for Higher Education Policy Studies.
4. Kwiek, M. (2015). *The University and the State: A Study of the Political Economy of Public Higher Education in Europe*. European Educational Research Journal.
5. Clare, M. (2010). *Institutional Financial Autonomy in Higher Education: Risks and Regulatory Needs*. Journal of Higher Education Policy and Management.
6. Kasper, H. (2007). *Corporate Governance and University Finance: The Role of Boards in Strategic Oversight*. Higher Education Quarterly.



7. Abdullaev A. (2021). Moliyaviy boshqaruvda strategik yondashuvlar. – Toshkent: “Fan va texnologiya”.
8. Qurbonov B. (2022). Oliy ta’lim muassasalarida davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish modellari. // “Iqtisod va ta’lim” jurnali, №3.
9. Sharipov N. (2023). Ta’lim muassasalarida budjetdan tashqari faoliyatni rivojlantirish yo’nalishlari. // “Ta’limda islohotlar” jurnali, №1.
10. Rahimov J., Ergashev D. (2022). Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy mustaqillik: imkoniyat va xatarlar. // “Ilm va amal” jurnali, №4.
11. Sen, A. (2021). Equity and Autonomy in Higher Education Financing. International Review of Education.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>